O‘QISH SAVODXONLIGI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti
Ergasheva Dilnoza Dilmurotovna

Annotatsiya: Ta’lim jarayoni matn vositasida uzatiluvchi axborotlar asosida olib boriladi. O‘qish savodxonligi orqali bilim egallash, matnlar bilan ishlash, tahlil qilish, saralash kompitensiyalari rivojlanadi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada o‘qish savodxonligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt vositalarining roli hamda oila, ta’lim muassasasi va ijtimoiy muhitning raqamli savodxonlikka ta’siri haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, raqamli texnologiyalar, kompyuter savodxonligi, sun’iy intellekt, kompitensiya, didaktik yondashuv.

Kirish. XXI asr ta’limi raqamli texnologiyalarga to‘yingan muhitda olib borilmoqda. Raqamli dunyoda mavjud texnologiyalardan foydalanishning shaxs rivojlanishi va ta’lim jarayonida tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish tezkor axborot bilan ishlash, ko‘proq ma’lumot olish imkoniyatini yaratish bilan birgalikda matn bilan ishlash ko‘nikmasini ham rivojlanadi. Shuning uchun ham o‘qish savodxonligini rivojlantirishda raqamli savodxonlik ahamiyati ham muhim sanaladi.

Ta’lim va ta’limdan tashqari jarayonlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish, ularning samaradorligini aniqlashga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘quvchilarda raqamli texnologiyalardan foydalanish savodxonligini rivojlantirish davr talabi. Bugungi kunda shunchaki, kompyuter va internetdan foydalanishni bilish savodxonlikni belgilamaydi. O‘quvchilarda raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish asosiy masaladir. O‘quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayoni o‘z-o‘zidan amalga oshirilmaydi. “Bunday vaziyatda didaktik yondashuv maqsadga muvofiqdir. O‘quvchida foydalanishga doir ko‘nikmalar to‘g‘ri shakllantirilmasa foydadan ko‘ra salbiy oqibatlar vujudga kelishi mumkin. Ta’lim jarayonida didaktik yondashuvlar orqali raqamli qurilmalardan foydalanish orqali inklyuziv va teng, sifatli ta’limni vujudga keltirish mumkin” [4].


O‘qitishni qo‘llab quvvatlash maqsadida sun’iy intellekt vositalaridan maqsadli foydalanish, matn bilan ishlashni soddalashtirish, o‘quvchi savodxonligini rivojlantirishda texnologiyalarning o‘rni borasida tadqiqotlarolib borilmoqda. “Jumladan, LEMI, Text Inspector, ARTE, ChatGPT va Perplexity kabilar bilan ishlash borasida ham tajriba-sinov ishlari davom etmoqda” [3]. “Shvetsiyada ananaviy pedagogik usullarga qaytishi dunyo bo‘ylab munozalarga sabab bo‘lganligi va Shvetsiya ta‘lim vaziri tomonidan qog‘oz asosidagi o‘qishga qaytish qarori (ko‘pincha ekran va qog‘oz bahsi deb ataladi) maktablarda texnologiyaning roli haqida global muhokamani boshladi” [2]. “2012-yilda OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) mamlakatlaridagi 15 yoshli o‘quvchilarning kompyuterlardan foydalanish ko‘rsatkichi maktabga qaraganda uyda ko‘proq foizni tashkil qilganligi aniqlangan. Tobora ko‘proq tadqiqotlar sinfda texnologiya va raqamli qurilmalardan foydalanish o‘quvchilarning akademik natijalaridagi yaxshilanish bilan bevosita bog‘liq emas va ularning ta’lim natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlangan”[4].

Ushbu maqolada ilmiy adabiyotlar tahlili, nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va o'qish savodxonligiga doir 2020-2025-yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Ta'lim va mavjud muhit ta'siri manbalar asosida tahlil qilindi.

Natijalar. Yuqoridagi tadqiqotlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning akademik natijalarini yaxshilashdan ko'ra salbiy holatlarga ham sabab bo'lishi mumkinligi haqida so'z boradi. Bunday jarayonda raqamli texnologiyalardan foydalanish vaqti, "odobi" haqida ham foydalanuvchilarda tushuncha shakllantirilishi lozim. Ayniqsa, bugungi raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida faol qo'llash targ'ib qilinayotgan bir davrda. O'quvchilarning ta'limiy savodxonligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillari muhim ahamiyatga ega. Tezkorlik, internet, sun'iy intellekt bilan to'yingan muhit o'rganuvchilarida bunday texnologiya yutuqlaridan to'g'ri foydalanishga doir immunitet shakllanishi kerak. Yangi yutuqlar bilim egalash, savodxonlikni oshirilishida muhim ahamiyatga ega. Bunday jarayonda to'g'ri axborot qabul qilish, undan real vaziyatda foydalanishga doir ko'nikma va malakalar shakllantirilishi lozim. Ta'limda va ta'limdan tashqari muhitda ko'proq nima maqsadda texnologiyalarga murojaat qilinayotganligi ham muhim masala sanaladi. Yosh doirasidagi qiziqishlar, ko'ngilochar saytlar, yozishmalar akademik bilim olish uchun foydalanishga qaraganda ko'proq foizlarni tashkil qilib qolmasligi asosiy masala.

Didaktik yondashuv ta'limda o'qituvchilar tomonidan to'g'ri tushuntirish, foydalanishga doir yo'l-yo'riqlar haqida targ'ibot ishlari olib borilsa, ta'limdan tashqari muhitda ota-ona, oila a'zolari nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonda asosiy masala, o'quvchida to'g'ri tushunchani yetkaza olish va ongli ravishda bu ko'rsatmalarga rioya qilishidir. Ko'r-ko'ronalik, anglab yetmaslik salbiy natijalarni keltirib chiqarishi tayin. Demak, o'quvchilarning raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanishida atrof muhitning ham ta'siri muhim ahamiyatga ega (1-rasmga qarang).

1-rasm



1-rasm.

O‘quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanishida ta’sir etuvchi ta’lim va ta’limdan tashqari muhit omillari.

Yuqoridagi (1-rasm) rasmda o‘quvchilarning raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanishida ta’sir etuvchi muhit omillari ifodalangan. O‘quvchilar hali voyaga yetmaganliklari sababli hamisha javobgar shaxslar tomonidan nazoratda bo‘ladilar. Bunda nazorat oilada va ta’limda yaqqol namoyon bo‘ladi. Rivojlangan davlatlar tajribalariga ko‘ra ota-ona va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik hamisha ijobiy natijalarni bergan. Shunday ekan, ta’lim muassasalari va oila mustahkam hamkorlikni o‘rnatishi o‘quvchilarning ahloqiy va ta’limiy rivojida mustahkam o‘rin egallaydi. Savodxonlik va raqamli texnologiyalardan foydalanishda ta’sir etuvchi ta’limdan tashqari ijtimoiy munosabat vakillari ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchilar kun davomida o‘qituvchi, sinfdoshlar, ota-ona, oila a’zolaridan tashqari do‘stlari, qarindoshlari, qo‘shnilar bilan ham munosabatga kirishadi. Demak, o‘quvchini o‘rab turgan muhit vakillari uning rivojlanishi va to‘g‘ri yo‘naltirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun ta’limida raqamli texnologiyalarning o‘qish, savodxonlikni rivojlantirishda o‘z o‘rniga ega ekanligi sir emas. Demak, ta’lim berishda o‘qituvchi omilining raqamli texnologiyalardan foydalish savodxonligini rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga doir ishlar ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda. “Yuqorida tilga olingan tadqiqot 56 nafar o‘qituvchilar ishtirokida amalga oshirilgan bo‘lib, raqamli ta’lim texnologiyalari, sun’iy intellekt vositalari yordamida matnlarni o‘qish qiyinligini kamaytirishga o‘rgatish borasida o‘qituvchilarni tayyorlashni maqsad qilib olgan” [3].

O‘qish savodxonligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellektning o‘rnini aniqlashga doir ham qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, tadqiqotlar natijalarida qarama-qarshiliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi [1]. Yuqorida tilga olingan tadqiqotlar asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qish savodxonligini (giperhavolalar, vizual matnlar bilan ishlash ko‘nikmasini) rivojlantirishi mumkinligi o‘z isbotini topadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida, insoniyat rivojlanib borayotgan dunyo yutuqlaridan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lmog‘i lozim. To‘g‘ri yo‘naltirilgan bilim va yaratiqlar shaxs rivoji uchun muhim omil sanaladi. Xuddi shunday, ta’lim jarayoniga integratsiya qilinayotgan raqamli texnologiyalardan foydalanishga doir to‘g‘ri targ‘ibot ishlari olib borilishi kerak. Oila va ta’lim muassasi o‘rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi va maqsadli yo‘naltirilish ijobiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. O‘qish savodxonligining rivojlanishi esa kelajak avlodning to‘g‘ri axborot qabul qilib, amaliyotga tatbiq qilishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli axborotlar kun sayin ko‘payib borayotganligini hisobga olsak, bunday savodxonlik darajasiga ehtiyoj yanada oshadi. Shu o‘rinda, raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahloqiy masalari borasida ham targ‘ibot ishlarining olib borilishi muhim. Ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilarning texnologiya vositalaridan foydalanish borasidagi ko‘nikmalarining rivojlanishi va ta’lim jarayonida tatbiq etilishi istiqbolli natijalarni berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bećirović, S., Polz, E., Tinkel I. Exploring students’ AI literacy and its effects on their AI output quality, self-efficacy, and academic performance // *Smart Learn. Environ.* – 2025.**12**, 29. https://doi.org/10.1186/s40561-025-00384-3
2. Díaz B., Nussbaum M., Greiff S., Santana M. The role of technology in reading literacy: Is Sweden going back or moving forward by returning to paper-based reading?// Computers & Education. – 2024. https://doi.org/10.1016/j.compedu.
3. Chitez M., Csürös K., Rogobete R. Upgraded literacy: teacher training approaches to integrating corpus data and AI tools for school text readability adaptation //Applied Corpus Linguistics. – 2026. Volume 6, Issue 1, https://doi.org/10.1016/j.acorp .
4. Vázquez-Cano E., Gómez-Galán, J., Infante-Moro A., López-Meneses, E. Incidence of a Non-Sustainability Use of Technology on Students’ Reading Performance in Pisa // *Sustainability*. – 2020. *12*(2), 749. https://doi.org/10.3390/su12020749